



XALQ DEPUTATLARI JOMBOY TUMANI KENGASHINING

QARORI

2024-yil 9-aprel

VI-101-58-7-94-K/24

Jomboy tumani

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmonini ijrosi yuzasidan, Jomboy tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini baholashning reyting ko‘rsatkichlari bo‘yicha 2024-yil 1-chorak davomida amalga oshirilgan ishlar va uning natijalari to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmonining ijrosini ta‘minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6-, 24- moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashining oltinchi chaqiriq, bir yuz birinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmonini ijrosi yuzasidan, Jomboy tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini baholashning reyting ko‘rsatkichlari bo‘yicha 2024-yil 1-chorak davomida amalga oshirilgan ishlar va uning natijalari to‘g‘risida, tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Sadullayev Akram Baxritdinovich hisoboti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (A.Sadullayev)ga:

- sanoat ishlab chiqarish hajmini oshirish yuzasidan faoliyat yuritayotgan korxonalaridagi mavjud muammolarni o‘rganish va ularni bartaraf etish;

- qo‘shimcha ishlab chiqarish hajmlariga erishish orqali aholi jon boshiga ko‘rsatkichlarini bajarilishini ta‘minlasin.

3. Tuman soliq inspeksiyasi (B.Baratov)ga:

- undirilmasdan qolgan soliq to‘lovlari, jumladan mol-mulk va yer solig‘i undirilish darajasi past bo‘lgan hududlarda mavjud boqimanda miqdorini undirish bo‘yicha hamda joriy yil yakuni bilan belgilangan reja bajarilishi yuzasidan qat‘iy choralar ko‘rish;

- faoliyatini vaqtincha to‘xtatgan tadbirkorlik subyektlari bo‘yicha ularning faoliyatini qayta tiklash choralari ko‘rsin.

4. Tumanni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yanada rivojlantirish hamda har bir yoʻnalishdagi ishlarni jadallashtirish maqsadida tumandagi sektorlar rahbarlari, tuman hokimining birinchi oʻrinbosari (A.Sadullayev), tuman kambagʻallikni qisqartirish va bandlikka koʻmaklashish boʻlimi bilan birgalikda:

- belgilangan budjet tushumlari rejasini oyma-oy bajarilishini;

- tadbirkorlikni rivojlantirish jumladan, dehqon xoʻjaliklari, tomorqa uchun ajratilgan yerlardan maqsadli foydalanish, meva-sabzavotchilik, chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik, asalarichilik va boshqa faoliyat turlarini rivojlantirish, qishloq xoʻjaligi ishlab chiqarishini tashkil etishda fermer xoʻjaliklariga koʻmaklashish, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni koʻpaytirish, eksport hajmini oshirish, xizmat koʻrsatish va servis sohasini rivojlantirishga oid chora-tadbirlar ijrosini taʼminlash;

- yangi ish oʻrinlari yaratish, ishsizlikni kamaytirish va mehnat bozori samaradorligini taʼminlash, ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini oshirish va aholi turmush sifatini yaxshilash choralarini koʻrsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjetini shakllantirish va uni ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari boʻyicha doimiy komissiyasi raisi (S.Boxodirov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



SOBIROV KAYUM
XAMRAYEVICH